

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53406-3.20.06

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

"8" iyul 2003 y.

**XALQARO MOLIIYA MUNOSABATLARI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340600 - "Moliya"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Jumaev N. X.,
dots. Burxanov U. A.

Taqrizchilar: prof. Vahobov A.,
dots. Haydarov N.

Dastur xalqaro moliyaviy munosabatlarning asosiy shakllarini qamrab olgan bo'lib, "Biznes va boshqaruv" sohasi bo'yicha bakalavriatning "Moliya" yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan. Unda ma'ruza, amaliy (seminar) mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim mavzulari va o'rganiladigan savollar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarning moliyaviy masalalari o'z aksini topgan. Dasturda fanni o'rganishga oid o'zbek, rus va ingliz tillaridagi asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati berilgan hamda kompyuter o'quv dasturlari, internet tarmog'i saytlari ro'yxati ilova qilingan.

Данная программа включает в себя основные формы международных финансовых отношений и предназначена для студентов направления бакалавриата "Финансы" сферы "Бизнес и управление". В программе освещены финансовые аспекты внешнеэкономических связей Республики Узбекистан, которые отражают суть вопросов лекционных, практических (семинарских) занятий и тем самообразования. В программе приведены списки литературы для изучения предмета на узбекском, русском и английском языках. К списку приложена перечень сайтов интернета и компьютерных учебных программ по соответствующим темам курса.

Program includes the most important theme reflecting the main point of general forms of the International Economic Relations and is worked out considering all special ties and directions of baccalaureate in sphere of "Business and Management". lecture themes, practical studies, seminars and self – educated questions including questions of foreign economic policy and foreign economic affairs of the Republic of Uzbekistan are observed in it.

Program consist of list of main and additional literature, economic news – papers and magazines, including also necessary English literature. As an appendices presented list of computer educational programs, internet web – sites and electronic training aids.

Dastur Toshkent moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (25 aprel 2002 yil 9-son majlis bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

"Xalqaro moliya munosabatlari" fanini o'qitishning maqsadi - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun chet mamlakatlar moliya tizimi, xalqaro moliya va uning tuzilishi haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi xalqaro moliya siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, fan o'z predmetini o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- xalqaro moliya munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- xalqaro moliya munosabatlari tizimi va uning bo'g'inlarini o'rganish;
- xalqaro miqyosda moliyani boshqarishning tashkiliy asoslarini o'rganish;
- mikro va makro darajada xalqaro moliya munosabatlarining amal qilishini o'rganish;
- chet davlatlar xalqaro moliya munosabatlarining ilg'or tajribalari va xususiyatlarini o'rganish;
- davlat tashqi savdo hamda valyuta balansining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uni mustahkamlash imkoniyatlarini yoritish;
- jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xalqaro moliya munosabatlarining ahamiyatini tahlil qilish.

"Xalqaro moliya munosabatlari" fani "Moliya", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Iqtisodiy nazariya", "Davlat moliyasi", "Chet mamlakatlar moliyasi" kabi fanlar bo'yicha nazariy bilimlarga tayanadi.

Shu bilan birga "Xalqaro moliya munosabatlari" fani qator maxsus fanlar, jumladan, "Davlat byudjeti", "Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish", "Nobyudjet fondlar", "Chet mamlakatlar moliyasi", "Korxonalar moliyasi", "Soliq va soliqqa tortish", "Sug'urta asoslari", "Qimmatli qog'ozlar bozori" kabi fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi davlat ta'lim standartiga (DTSga) muvofiq ravishda o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tegishli bilimga, uquvga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda xalqaro moliyaviy qonunchilik, ommaviy-axborot vositalari orqali xalqaro miqyosdagi kundalik moliyaviy o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim. Mazkur fanning asosiy g'oyalari to'la va muvaffaqiyatli o'rganish uchun talabalar xalqaro moliya amaliyotida mavjud iktisodiy tahlil, moliyaviy rejalashtirish usullaridan foydalana bilishlari lozim.

"Xalqaro moliya munosabatlari" fanidan olingan bilimlar talabalarga oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng, xalqaro moliya amaliyotiga oid kundalik faoliyatda uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda xalqaro moliya munosabatlariga doir adabiyotlarni o'rganib, malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha talabalar tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladi, referat va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadi. Amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollarni talabalar mustaqil ravishda to'liq o'zlashtirishlari lozim.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 60, shu jumladan 20 - ma'ruza, 20 - amaliy mashg'ulotlar va 20 - mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. Ushbu fan bo'yicha darslarni tashkil etish VIII o'quv semestriga mo'ljallangan.

Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasi reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholash asosida aniqlanadi.

Fanni o'qitishning bir semestrda ikki marotaba joriy (seminar mashg'ulotlarida), ikki marotaba oraliq (ma'ruza mashg'ulotlarida) va bir marotaba yakuniy baholash (yozma ish usulida) amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Ushbu fanni o'qitish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanishning asoslarini quyidagilar isbotlaydi:

- tegishli o'quv maqsadlarini ishlab chiqish texnologiyasining mavjudligi;
- to'la o'zlashtirish texnologiyasi ko'zda tutilganligi;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazish texnologiyasi mavjudligi;
- test topshiriqlarining invariantligi metodologiyasi va nazariyasidan foydalanilishi;
- muammoli usul va haqiqatni imitatsion modellashtirish asoslaridan foydalanilishi;
- tayanch iboralarga asoslangan yozma ish orqali nazorat ishlarini o'tkazish tizimidan foydalanilishi.

Bu fanni o'qitishda moliyaga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi ("Moliya" AIJ) dasturi, nizomlar va moliyaviy loyihalarni baholashning YuNIDO va "Projestexpert" kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalardan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ishchi dasturni tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan "Moliya", "Kasb ta'limi" bakalavr ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislariga tegishli tarzda VIII-semestrda qilishi mo'ljallangan.

Ushbu fan bo'yicha ishchi dasturlari tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Fan bo'yicha bakalavriyat bosqichining tegishli yo'nalishlari uchun tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq ajratilgan soatlar hisobga olinishi zarur;
2. Har bir mavzuga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda tegishli moliyaviy qonunchilik asosidagi yangi talab va o'zgarishlar talabalar e'tiborini jalb etadigan tarzda berilishi kerak;
3. Ishchi dasturda mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular va savollar ajratib ko'rsatilishi zarur;
4. Ishchi dasturda o'qitishning ilg'or texnologiyalari, dasturiy ta'minot imkoniyatlari hamda talabalar bilimi darajasini nazorat qilishning reyting tizimi talablaridan kelib chiquvchi vazifalar ham yoritilishi lozim.

2. FAN DASTURI

"Xalqaro moliya munosabatlari" fani bo'yicha o'qiladigan ma'ruzalar mavzulari

Milliy xo'jalikning rivojlanishida xalqaro moliyaviy munosabatlarning roli va ahamiyati

O'zbekiston - xalqaro munosabatlarning sub'ekti sifatida. Globalizatsiya. Hududiy integratsiya. Ochiq bozor tizimining ahamiyati va afzalliklari. Milliy xo'jalikning rivojlanishida tashqi iqtisodiy aloqalar va xalqaro moliya munosabatlarning roli. Milliy iqtisodiyotga xalqaro iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarning ijobiy hamda salbiy ta'siri. Ochiq iqtisodiyot sari harakatning bosqichlari. O'zbekiston Respublikasining xalqaro bozorga kirishi va iqtisodiy potentsialining o'ziga xos xususiyatlari. Tashqi iqtisodiy va xalqaro moliyaviy munosabatlarning yangi bosqichdagi vazifalari. Jahon xo'jalik tizimi va xalqaro moliyaviy munosabatlarning rivojlanishi.

Jahon valyuta tizimi va uning rivojlanish bosqichlari

Valyuta munosabatlari. Milliy valyuta tizimi. Valyuta munosabatlarining ishtirokchilari. Jahon valyuta tizimi, uning rivojlanishi. Moliya operatsiyalari. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari xususiyatlari. Jahon valyuta tizimining asosiy elementlari. Parij, Genuya, Brettonvud, Yamayka jahon valyuta tizimlarining o'ziga xos jihatlari. Zahira valyuta. Xalqaro valyuta fondi(OVF)ning tashkil topishi va rivojlanishi. XVFnning kredit faoliyati. XVFnning maxsus fondlari. XVFnning xalqaro valyuta-kredit munosabatlarni tartibga solishdagi roli. Evropa valyuta tizimi. Evropa valyuta tizimining asosiy elementlari. Evropa Valyuta Ittifoqining tashkil etilishi bosqichlari. Xalqaro valyuta munosabatlarida oltinning tutgan o'rni.

Valyuta bozori va valyuta operatsiyalarining xalqaro moliya munosabatlaridagi ahamiyati

Valyuta bozori. Milliy valyuta bozori. Hududiy valyuta bozorlari. Jahon valyuta bozori. Valyuta kurslari va unga ta'sir etuvchi omillar. Kross kurs. Valyuta kotirovkasi. Valyuta pariteti. Xorijiy valyuta va valyuta operatsiyalari mazmuni. Joriy valyuta operatsiyalari va kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalari. Naqd kassa bitimlari. Muddatli bitimlar bilan bog'liq valyuta operatsiyalar. Forvard valyuta bitimi, moliyaviy fyucherslar, valyuta opsiyani va svop operatsiyalari. O'zbekistonda valyuta operatsiyalarini rivojlantirish muammolari. Valyuta konvertatsiyasi. Valyuta zahiralari. Valyuta qimmatliklari. Vakolatli banklar.

Xalqaro moliya munosabatlarida mamlakat valyuta siyosatining o'rni va ahamiyati

Mamlakat milliy valyuta siyosatining iqtisodiy mazmuni. Valyuta siyosatining maqsad va shakllari. Diskont siyosati. Deviz siyosati. Valyuta intervensiyasi. Devalvatsiya. Revalvatsiya. O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosatining ayrim jihatlari. Valyuta siyosatining huquqiy asoslari. Valyuta siyosatining strategik maqsadlari. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni. Valyuta siyosati doirasidagi asosiy operatsiyalar. Valyuta siyosati bo'yicha xorijiy tajriba. Valyuta kursining nazariy asoslari. Valyuta siyosatidan pul muomalasini tartibga solishda foydalanish. Pul-valyuta bozorining asosiy elementlari. Respublika valyuta bozori. Muvofiqlashgan intervensiya. Valyuta siyosatida hamkorlik. Valyuta siyosatining ta'sirchanligini oshirish va uni takomillashtirish.

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlarida valyuta risklari va ularni sug'urtalash usullari

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlarida risklarni aniqlash. Risklarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar. *Risk turlari: valyuta riski, kredit riski, foiz riski, transfert riski. Himoya kelishuvlari. Ko'p valyutali kelishuvlar.* Valyuta riskini sug'urtalashning zamonaviy usullari. Xejerlash.

Mamlakat to'lov balansining xalqaro moliya munosabatlaridagi roli

To'lov balansining iqtisodiy mohiyati. To'lov balansining tarkibi. To'lov balansining ko'rsatkichlari va ularni tasniflash usullari. *To'lov balansining turli ta'riflari. Rezidentlar. Norezidentlar.* To'lov balansi qoldig'ini o'lchash usullari. *Bazis balans kontseptsiyalari. Likvidlilik kontseptsiyasi. Rasmiy hisob-kitoblar balansi kontseptsiyasi. Faqat joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi qoldig'ini o'lchashga qaytish.* To'lov balansini tartibga solishning asosiy usullari. Deflyatsion siyosat. Devalvatsiya. Valyuta cheklovlari. Moliya va pul-kredit siyosati. *"Ko'rinmas" operatsiyalar. Importni cheklash. Aktiv to'lov balansi. Passiv to'lov balansi.* To'lov balansini muvozanatlash usullari. To'lov balansi taqchilligini moliyalashtirish. Rivojlanayotgan mamlakatlarning to'lov balanslari. To'lov balansiga ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish.

Xalqaro moliya tashkilotlari va davlat fondlari

Xalqaro moliya tashkilotlari hamda davlat fondlarining maqsad va turlari. Eksport operatsiyalarini davlat tomonidan kreditlash. *Davlat fondlari faoliyati bo'yicha xorijiy tajribalar.* Rivojlanayotgan mamlakatlarda eksportnikreditlash. *Xalqaro va hududiy valyuta, kredit hamda moliyaviy tashkilotlar.* Xalqaro valyuta bozori. *Xalqaro qayta tiklash va taraqqiyot banki (XTTB).* XTTB guruhining institutsional tuzilmalari. *Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi. Xalqaro moliya korporatsiyasi.* Ko'p qirrali investitsion-kafolat agentligi, ularning maqsad va vazifalari. *Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB), uning tuzilishi, asosiy vazifalari, maqsadi hamda tashkiliy tuzilishi.* ETTB resurslarining shakllanishi. ETTBning kredit-investitsion siyosati. Evropa hamjamiyatining mintaqaviy valyuta-kredit va moliya tashkilotlari. ETTBning mintaqaviy valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlariga umumiy tavsif. Evropa Ittifoqi(EI)

mintaqaviy valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlarining tuzilish sabablari. EI tashkilotlarining asosiy kredit-moliyaviy faoliyati.

Xalqaro savdo operatsiyalari va ularni moliyalashtirish

Xalqaro savdo tushunchasi. Xalqaro savdoning turlari. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari. O'zbekiston Respublikasida eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish mexanizmi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. O'zbekiston xalqaro kredit munosabatlari muhitida. Xorijiy kredit liniyalari. *Xalqaro savdo rivojlanishi – iqtisodiy o'sishning asosi*. Islohotlarning yangi bosqichida tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solishga sifat jihatdan yangicha yondoshuv. *Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlariga davlat tomonidan ta'sir etishning vazifalari, maqsadi va sabablari*. Tashqi iqtisodiy faoliyatga davlat tomonidan ta'sir etishning moliyaviy usullari va vositalari. Boj to'lovi. Tarifsiz cheklovlar. Import kvotalari, import litsenziyalari, eksportni subsidiyalash.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortish

Xalqaro operatsiyalarni soliqqa tortish zaruriyati va mohiyati. Mamlakatning tashqi soliq siyosati. Ikki yoqlama soliqqa tortish. Soliqqa tortish bo'yicha xalqaro kelishuvlar. O'zbekiston Respublikasining tashqi soliq siyosatini shakllantirish va uni takomillashtirish. *Soliqlarni rejalashtirish*.

Xalqaro lizing operatsiyalari

Xalqaro lizing operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati. Xalqaro lizing operatsiyalarining xalqaro moliya munosabatlaridagi roli. Lizing shakllari. *Operatsion va moliyaviy lizing*. Xalqaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari. *Xalqaro lizing shartnomalari shakllari*. Lizingga ixtisoslashgan xalqaro kompaniyalar. *Xalqaro lizing bo'yicha investitsiya loyihalari bilan bog'liq masalalar*. Xalqaro lizing operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasida qo'llash masalalari va rivojlantirish istiqbollari.

Xalqaro sug'urta bozori va sug'urta operatsiyalari

Xalqaro sug'urta operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati. Xalqaro sug'urta bozori. *Sug'urtalash. Qayta sug'urtalash*. Evropa sug'urta bozorining dunyo sug'urta bozoridagi o'рни. Kreditlarni sug'urtalash bo'yicha davlat tashkilotlari. *Milliy sug'urta assotsiatsiyalari*. Sug'urta kompaniyalarining investitsiyalari.

Xalqaro kreditlar va xorijiy investitsiyalar

Xalqaro kapital bozorlari. Chet el investitsiyalarining mohiyati, zaruriyati va ahamiyati. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ssuda kapitalining harakat qilish shakllari. Tadbirkorlik kapitalining chetga chiqarilishi. *Kapital eksportining shakllari.* Kapital harakatining tendentsiyalari. Xalqaro qo'shma korxonalar. Xalqaro integratsiyada hamkorlikdagi tadbirkorlik tushunchasi, uning roli va ahamiyati. *O'zbekistonda qo'shma korxonalarining tuzilishi va rivojlanishi.* O'zbekistonda chet el investorlariga beriladigan huquqiy va iqtisodiy imtiyozlar va ularning ahamiyati.

Chet el investitsiyalarini jalb qilishning asosiy sohalari, ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni. Chet el investitsiyalarini jalb qilish yo'llari. Chet el kapitalini qimmatli qog'ozlar bozori orqali jalb etish. Ko'chmas mulkka jalb qilingan xorijiy sarmoyalar. Investitsion muhit tushunchasi. *O'zbekiston Respublikasida investitsion muhitning barpo qilinishi va uning muhim omillari.*

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi. *O'zbekistonda xalqaro kreditlash.* Qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlashdan foydalanish xususiyatlari. O'zbekistonga bevosita chet el investitsiyalarining kirib kelishi. Buning uchun qulay ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitning yaratilishi. O'zbekiston qarzdor va kreditor davlat sifatida.

O'zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlardagi ishtiroki

O'zbekistonning EI bilan hamkorligi. O'zbekistonning XVF va ETTBga kirishi. Oxirgi yillardagi *XVFning moliyaviy yordamlari.* XVF mablag'laridan oqilona foydalanish. O'zbekistonning XTTB, Xalqaro rivojlantirish assotsiatsiyasi, ETTB bilan hamkorligi. ETTBning O'zbekistondagi faoliyati. O'zbekistonning Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorligi.

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI, LABORATORIYA ISHLARI, CHIZMA-HISOB ISHLARI, KURS ISH(LOYIHA)LARI MAVZULARINING NAMUNAVIY RO'YXATI

Amaliy (seminar) mashg'ulotlari mavzulari ro'yxati

Milliy xo'jalikning rivojlanishida xalqaro moliyaviy munosabatlarning roli va ahamiyati

Globalzatsiya. Integratsiya. Ochiq bozor tizimining ahamiyati va afzalliklari*. Milliy xo'jalikning rivojlanishida tashqi iqtisodiy aloqalar hamda xalqaro moliya munosabatlarining roli va ahamiyati. Milliy iqtisodiyotga xalqaro iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarning ijobiy va salbiy ta'siri. O'zbekiston Respublikasining xalqaro bozorga kirishi va iqtisodiy potentsialining o'ziga xos xususiyatlari*.

Jahon valyuta tizimi va uning rivojlanish bosqichlari

Valyuta munosabatlari. Milliy valyuta tizimi. Valyuta munosabatlari ishtirokchilari*. Jahon valyuta tizimi, uning rivojlanishi. Moliya operatsiyalari*. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari va uning xususiyatlari. Xalqaro valyuta fondi(OVF)ning tashkil topishi va rivojlanishi. XVFning maxsus fondlari. XVFning xalqaro valyuta-kredit munosabatlarning tartibga solishdagi roli*. Evropa valyuta tizimi. Evropa valyuta ittifoqini tashkil etish bosqichlari. Xalqaro valyuta munosabatlarida oltinning tutgan o'ri.

Valyuta bozori va valyuta operatsiyalarining xalqaro moliya munosabatlaridagi ahamiyati

Valyuta bozori. Valyuta kurslari va unga ta'sir etuvchi omillar. Kross kurs. Valyuta kotirovkasi. Valyuta pariteti. Joriy valyuta operatsiyalari va kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalari*. O'zbekistonda valyuta operatsiyalarini rivojlantirish muammolari. Valyuta konvertatsiyasi*. Valyuta zaxiralari. Valyuta qimmatliklari. Vakolatli banklar.

Xalqaro moliya munosabatlarida mamlakat valyuta siyosatining o'ri va ahamiyati

Valyuta siyosatining maqsad va shakllari*. O'zbekiston valyuta siyosatining ayrim jihatlari. Valyuta siyosatining strategik maqsadlari. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni*. Valyuta siyosati doirasidagi asosiy operatsiyalar. Valyuta siyosati bo'yicha xorijiy tajriba. Valyuta kursining nazariy asoslari. Valyuta siyosatidan pul muomalasini tartibga solishda foydalanish. Pul-valyuta bozorining asosiy elementlari. Respublika valyuta bozori. Valyuta siyosatini ta'sirchanligini oshirish va uni takomillashtirish*.

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlarida risklar va ularni sug'urtalash usullari

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlarida risklarni aniqlash. Risklarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar. Risk turlari: valyuta riski, kredit riski, foiz riski, transfert riski. Himoya kelishuvlari*. Valyuta riskini sug'urtalashning zamonoviy usullari.

Mamlakat to'lov balansining xalqaro moliya munosabatlaridagi roli

To'lov balansining tarkibi*. To'lov balansining ko'rsatkichlari va ularni tasniflash usullari. To'lov balansi qoldig'ini o'lchash usullari. To'lov balansini tartibga solishning asosiy usullari. To'lov balansi taqchilligini moliyalashtirish. Rivojlanayotgan mamlakatlarning to'lov balanslari. To'lov balansiga ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish*.

Xalqaro moliya tashkilotlari va davlat fondlari

Xalqaro moliya tashkilotlari va davlat fondlarining maqsad va turlari. Eksport operatsiyalarini davlat tomonidan kreditlash*. Rivojlanayotgan mamlakatlarda eksportnikreditlash. Xalqaro va xududiy valyuta, kredit va moliyaviy tashkilotlar. Evropa hamjamiyatining mintaqaviy valyuta-kredit va moliya tashkilotlari*. ETTBning mintaqaviy valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlariga umumiy tavsif. Evropa Ittifoqi mintaqaviy valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlarining tuzilish sabablari.

Xalqaro savdo operatsiyalari va ularni moliyalashtirish

Xalqaro savdoning turlari. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari. O'zbekiston Respublikasida eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish mexanizmi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. O'zbekiston xalqaro kredit munosabatlari muhitida*. Islohotlarning yangi bosqichida tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solishga sifat jihatdan yangicha yondoshuv. Tashqi iqtisodiy faoliyatga davlat tomonidan ta'sir etishning moliyaviy usullari va vositalari*.

Tashqi iqtisodiy munosabatlarni soliqqa tortish

Xalqaro operatsiyalarni soliqqa tortish zaruriyati va mohiyati. Ikki yoqlama soliqqa tortish*. Soliqqa tortish bo'yicha xalqaro kelishuvlar. O'zbekiston Respublikasining tashqi soliq siyosatini shakllantirish va uni takomillashtirish*.

Xalqaro lizing operatsiyalari

Xalqaro lizing operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati. Xalqaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari. Xalqaro lizing shartnomalari shakllari*. Xalqaro lizing bo'yicha investitsiya loyihalari bilan bog'liq masalalar. Xalqaro lizing operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasida qo'llash masalalari va rivojlantirish istiqbollari*.

Xalqaro sug'urta bozori va sug'urta operatsiyalari

Xalqaro sug'urta operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati. Evropa sug'urta bozorining dunyo sug'urta bozoridagi o'rni*. Kreditlarni sug'urtalash bo'yicha davlat tashkilotlari. Milliy sug'urta assotsiatsiyalari. Sug'urta kompaniyalarining investitsiyalari*.

Xalqaro kreditlar va xorijiy investitsiyalar

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ssuda kapitalining harakat qilish shakllari. Kapital eksportining shakllari*. Kapital harakatining tendentsiyalari. O'zbekistonda chet el investorlariga beriladigan huquqiy va iqtisodiy imtiyozlar va ularning ahamiyati. Chet el investitsiyalarini jalb qilishning asosiy sohalari, ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan

o'zni. Chet el investitsiyalarini jalb qilish yo'llari*. O'zbekiston Respublikasida investitsion muhitning barpo qilinishi va uning muhim omillari*.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi. O'zbekistonda xalqaro kreditlash.

O'zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlardagi ishtiroki

O'zbekistonning EI, XTTB bilan hamkorligi. O'zbekistonning XVF va ETTBga kirishi. O'zbekistonning Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorligi.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI RO'YXATI

Mavzularni chuqur o'rganishda ko'rgazmali vositalar, slaydlardan, kompyuter texnikasidan foydalanish ko'zda tutilgan.

Case Studies: O'R makroiqtisodiy tahliliga doir o'quv misollari (rus tilida). Ochiq jamiyat instituti xomiyligida Iqtisodiy Markaz tomonidan tuzilgan.

Masofaviy o'qitish soatlari: www.google.ru (Budapesht, Evropa Markaziy Universiteti dasturlari); www.yandex.ru; www.rambler.ru; www.worldbank.org.ru; www.imf.org.

Kompakt disk: Sales information. International Monetary Fund – Publication Services; Exchange Rate Analysis with a Case Study on Poland.

Statistik to'plamlar:

1. Strani mira v tsifrax za 2000, 2001 g.g.
2. Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za 2000, 2001, 2002 g.g.
3. Otcheti MVF za 2000, 2001 g.g.

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini semestr davomida muntazam ravishda olib borish. Joriy, oraliq va yakuniy baholash. Joriy va oraliq baholash uchun ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlardan qo'yiladi:

- talabani o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;

- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirishi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- ilmiy tezislarni tayyorlashi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash.

Tayanch iboralarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 foiz "a'lo";
- 71 - 85 foiz "yaxshi";
- 55 - 70 foiz "qoniqarli";
- 55 foizdan kam "qoniqarsiz".

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari -T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
4. O'zbekiston Respublikasining "Valyutaviy tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni. 1993 yil 7 may.
5. Maksimo V. Eng, Frensis A. Lis, Lourens Dj. Mauer. Mirovie finansi. -M.: Deko, 1998.
6. Krasavina L.N. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie i finansovie otnosheniya. Ucheb. pos. -M.: Finansi i statistika, 2001.
7. Abramova A.M., Aleksandrova L.S. Finansi, denejnoe obrashchenie i kredit: Ucheb. pos. -M., 1999.
8. Avdokushin E.F. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Ucheb. pos. -M., 2001.
9. Bocharov V.V. Investitsionniy menedjment: regionalniy aspekt – S-Pb.: Piter, 2000.
10. Dj. Van Xorn. Osnovi upravleniya finansami, Pod red. prof. Sokolova Ya.V. -M.: Finansi i statistika, 1996.
11. Dj. Menvil Xarris. Mejdunarodnie finansi. - M., 1996.

12. Shmireva A.I., Kolesnikov V.I., Klimov A.Yu. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie otnosheniya. – S-Pb.: Piter, 2001.
13. Ershov M.V. Valyutno-finansovie mexanizmi v sovremennom mire. -M.: OAO MPO, 2001.
14. Fedorov. Osnovi straxovoy deyatelnosti. Ucheb. -M.: BEK, 1999.
15. Kratko I.G. Mejdunarodnoe predprinimatelstvo. Ucheb. pos. -M.: 2001.
16. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskije otnosheniya. Uch.pos. pod red. Akopovoy E.S. - M.: Feniks, 2001.
17. Mejdunarodnie ekonomicheskije otnosheniya. Uch. pod red. Liventseva N.N. - M.: Finansi i statistika, 2001.
18. Mejdunarodnie finansovie otnosheniya. Uch. pod red. akad. Senchagova A. G. - M.: Finansi i statistika, 2001.
19. Strigin A.V. Mirovaya ekonomika – M.: Ekzamen, 2001.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Kurochkin D.N. Evro - novaya valyuta Starogo Soveta. -M.: 2000.
2. Livshits A.Ya. Osnovnie orientiri finansovoy politiki // "Finansi", 1997, № 1.
3. Mirovaya ekonomika. Ekonomika zarubejnih stran. Pod. red. prof. V.P. Kolesova i dr. –M.: Flinta 2001.
4. Pogorletskiy A.I. Ekonomika i ekonomicheskaya politika Germanii v XX veke. –S-Pb.: 2001.
5. Pushkareva V.M. Istoriya finansovoy misli i politiki nalogov. Ucheb. pos. -M.: INFRA-M, 1996.
6. Sumarokov V.N. Gosudarstvennie finansi v sisteme makroekonomicheskogo regulirovaniya. -M.: Finansi i statistika, 1996.
7. Boyd J. Inflation. "Growth and Central Banks Theory and Evidence", 1996. Policy Research working Poner. 1575. The World Bank. Washington. D. C.
8. Hermes N. Lesnik R. Financial System Development in Transition Economies. Journal of Banking and Finance. Vol. 24. pp. 507-524.
9. Moyer C. Financial System. Corporote Finance and Economic Development, in RA Hubbard (ed) Asymmetric information. Corporote Finance and investment. A Notional Bureau of Economic 1990 Research Project Report, University of Chicago Press. Chicago. PP. 307-322.
10. Steinherr A. An innovatori Package for Financial Sector Reforms in Eastern Euro pean Countries. Jorunal of Banking and Financeial 17 PP. 1033-1057.

11. Mingaleva Zh About the experience of enterprise's strategies in crises situation. All Russian scientific conference "Economics" theory methodology, trends of development: S-Petersburg 1998.
12. Tkacheva S Innovation Activities Infrastructure, as Multi Agent System The 11th Annual Meeting of the Japan Association for Evolutionary Economics. JAFEE 2000 Tokyo Japan 2000.